

5-SINF ADABIYOT DARSLIGI UCHUN TANLANGAN ASARLAR TAHLILI**Zulfira Musaboyeva Iqboljon qizi****ToshDO'TAU Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti****Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası tayanch doktoranti****shakhrizodmusaboev@gmail.com****Tel: +998990080563****<https://doi.org/10.5281/zenodo.13822347>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan xalqaro reytinglar natijasida tuzilgan, o'quvchilarni nafaqat ma'lumot olishlari, balki ularni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undovchi dasturlar asosida yaratilgan yangi 5-sinf darsligi uchun tanlangan asarlar tahlili haqida fikr va mulohazalar berib borilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, ko'nikma, yangi darsliklar, kreativlik, kengaytirilgan texnologiyalar.

Adabiyot fanida adabiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligi muhim sifat hisoblanib uning natijasi o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida go'zalikka bo'lgan ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantiradi, badiiy asarga – kitobga bo'lgan mehr va muhabbatni o'stiradi, bularning zamiri esa undagi badiiy-estetik didni takomillashtiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishdan bosh maqsad sog'lom e'tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o'zga inson tuyg'ularini his qiladigan, o'z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Yurtimiz ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish yuzasidan turli xil farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan barcha dastur hamda darsliklar asosiga o'zgartirishlar kiritildi. Buning eng katta omili bizning milliy o'quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko'zga ko'ringan ta'lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Biz mazkur tezisimizda zamonaviy 5-sinf adabiyoti darsligida qanday o'zgarishlar bo'lgani va darslik uchun asarlar qaysi tamoyillar asosida tanlangani haqida quyida fikr yuritamiz.

Bugungi kunda adabiyot fani bo'yicha sinflar kesimida maktab darsliklarini ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda: darslik tayyorlashda ta'limsohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayanish, o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, ruhiy xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish, o'quv-metodik darsliklarlarda o'quvchilarda adolat, milliy g'urur va vatanparvarlik hissini shakllantirishda ustuvorlikni ta'minlash. Yaratilgan yangi darsliklar o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash hamda kreativlik qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirildi, yangi zamonaviy darsliklar o'quvchilarning ma'naviy va aqliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tayyorlandi hamda ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalariga tizimli yondashuv asoslari ishlab chiqildi, an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish darsliklarni yaratishda inobatga olindi.

5-sinf adabiyot darsligi “Adabiyot-soʻz sanʼati” deb nomlangan kirish qismi bilan boshlanadi. Ushbu qismda oʻquvchilarning boshlangʻich darajadan endi chiqqani, adabiyot darsligi bilan ilk bor tanishayotgani hisobga olinib, adabiyot, obrazli fikrlash nima ekani, adabiyotning nasr, nazm, dramaturgiya kabi adabiy turlar haqida qisqa maʼlumotlar berilgan. Undan keyin kelgan maqol va topishmoqlar esa oʻquvchilarni adabiyot olamiga asta-sekin yetaklab kirishga xizmat qiladi. Zamonaviy 5-sinf adabiyot darsligidagi asosiy oʻzgarish savol vatopshiriqlar qismida aks etgan. Yaʼni ushbu qismda mualliflar eski darslikdan farqli ravishda oʻquvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga, yodlash emas, oʻylashga undovchi savollar berishni istagan.

Darslikning “Ertaklar olamida” boʻlimiga nazar tashlasak, unda Aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi”¹ ertagi yangi kiritilganini koʻrishimiz mumkin. Adabiyot darsligining 2016-yilgi nashrida Hans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagi keltirilgan edi. Fikrimizcha “Botir tikuvchi” ertagi oʻquvchilarga tanish boʻlgan odamlar haqida ekani, ularning tasavvurini yanada kengaytirishga xizmat qila olishi uchun ham yangi darslikka kiritilgan.

Bundan tashqari darslikka Oʻzbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida maʼlumot, uning “Hayotning har lahzasi goʻzal”, “Vatanjon”, “Tinch kunlar”, “Yer” singari sheʼrlari ham kiritilgan. Darslikka kiritilgan ushbu yangilik ham oʻquvchilar uchun manfaatli boʻlgan deb oʻylaymiz. Chunki shoir Anvar Obidjonning asarlari oʻquvchining yoshiga mos, zehnni oʻtkirlovchi, bolani fikrlashga, idrok qilishga undovchi va ravon asarlardir. Shoir oʻquvchini zeriktirib qoʻymaydi. U oʻz sheʼrlari, hech shubhasiz, bolaning poshsho koʻnglidan joy oladi va ayni vaqtda unga taʼlim, tarbiya ham beradi.

Masalan, uning “Yer” sheʼriga eʼtibor beraylik:

Boʻshliqda tirgaksiz gʻildirab,
Qanotsiz boʻzlagan olam bu.
Goh Oydan, goh Kundan nur tilab,
Sarson gizgizlagan olam bu.

Ochilgan bahrimi oʻrmonlar,
Toʻkkan koʻz Yoshimi ummonlar?
Koʻksida gʻar oʻtli vulqonlar,
Bosh-puti muzlagan olam bu.

Badiiy asarlar orqali yoshlarni sharqona odob-axloq qoidalari, urf-odatlar, milliy maʼnaviyat va qadriyatlar bilan samarali tanishtirish mumkin. Shunga koʻra taʼlim mazmunida yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasini roʻyobga chiqarish, qolaversa, ularni mustaqil fikrlashga oʻrgatish, maʼnaviy-axloqiy tarbiya, maʼrifiy, taʼlimiy maqsadlar, oʻzbekni anglash uchun xizmat qildirish maqsadi koʻzlanishi kerak. Bugina emas, u oʻzbek adiblarining hayoti, ijodiy merosi, ijtimoiy faoliyati haqida yetarli tushuncha hosil qilishga qaratilishi zarur. Bu tushunchalar estetik va etik normalarni anglatib borish orqali maʼlum qilinadiki, bu ishlar badiiy-estetik did oʻstirish bilan ham bogʻlanadi.

¹ Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qoʻchqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla-Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.-Toshkent “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020. -79-bet

Xulosa qilib aytganda, komil inson tarbiyasi uzluksiz adabiy tayyorgarlik mazmunida hisobga olinadigan masala sifatida ajratiladi, lekin u bevosita adabiy hozirlik mazmuniga kirmaydi. Zero, asar tanlashda uning mazmuni orqali o'quvchilarda muayyan axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

References:

1. Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qo'chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla-Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.-Toshkent "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020. -79-b.
2. Yo'ldoshev Q., Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari. //Til va adabiyot ta'limi, – 1996, – №3,
3. Zunnunov A. O'zbek maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi tarixidan ocherklar. – T.: O'qituvchi, 1980. – 191 b.
4. Крупина Н.Л. Формирование эстетических суждений учащихся о художественном произведении (10 кл.): Автореферат дисс. ... канд. педнаук. – Москва, 1981. – с. 10.

